



INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№4


ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

4-jild
4-son
Aprel, 2026

April, 2026
Volume 4
Number 4

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



MOLIYAVIY INQIROZ SHAROITIDA KORXONA LIKVIDLIGI VA PUL OQIMLARI TAHLILI

Muqaddas Saxatova Toshpo'lat qizi

ANALYSIS OF ENTERPRISE LIQUIDITY AND CASH FLOWS IN THE CONDITIONS OF FINANCIAL CRISIS

Muqaddas Sakhatova Toshpo'lat kizi

АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ И ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ В УСЛОВИЯХ ФИНАНСОВОГО КРИЗИСА

Мукаддас Сахатова Тошпулат кизи

Received: April 18, 2026 Revised: April 22, 2026 Accepted: April 24, 2026 Published: May 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy inqiroz sharoitida korxonalarning likvidligi va pul oqimlarini boshqarish masalalari tahlil qilinadi. Korxonalarda pul oqimlarini samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Maqolada moliyaviy inqiroz sharoitida likvidlik darajasini aniqlash, pul oqimlarini tahlil qilish usullari hamda korxonaning to'lov qobiliyatini oshirish yo'llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pul oqimlarini to'g'ri rejalashtirish va nazorat qilish korxonalarning moliyaviy xavflarga bardosh berish imkoniyatini oshiradi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy inqiroz, likvidlik, pul oqimlari, moliyaviy barqarorlik, to'lov qobiliyati, moliyaviy tahlil, boshqaruv.

Annotation: This article analyzes the issues of enterprise liquidity and cash flow management under conditions of financial crisis. Effective management of cash flows in enterprises is considered one of the key factors in ensuring financial stability. The article examines methods for assessing liquidity levels, analyzing cash flows, and improving the solvency of enterprises during periods of financial instability. The results of the study show that proper planning and control of cash flows significantly increase the ability of enterprises to withstand financial risks and crisis situations.

Keywords: Financial crisis, liquidity, cash flows, financial stability, solvency, financial analysis, management.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы управления ликвидностью и денежными потоками предприятий в условиях финансового кризиса. Эффективное управление денежными потоками на предприятиях является одним из ключевых факторов обеспечения финансовой устойчивости. В статье освещаются методы определения уровня ликвидности в условиях финансового кризиса, способы анализа денежных потоков, а также пути повышения платёжеспособности предприятия. Результаты исследования показывают, что правильное планирование и контроль денежных потоков повышают способность предприятий противостоять финансовым рискам.

Ключевые слова: финансовый кризис, ликвидность, денежные потоки, финансовая устойчивость, платёжеспособность, финансовый анализ, управление.

■ KIRISH

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan beqarorlik va moliyaviy inqirozlar sharoitida korxonalar faoliyatining barqarorligini ta'minlash dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, likvidlik darajasi va pul oqimlarini samarali boshqarish korxonalarning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi, moliyaviy xavflarni kamaytirishi hamda raqobatbardoshligini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy inqiroz davrida tushumlarning qisqarishi, to'lov intizomining buzilishi va tashqi

moliyalashtirish manbalarining cheklanishi korxonalar likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Likvidlik va pul oqimlari tahlili korxonaning moliyaviy holatini baholashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali korxonaning naqd mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasi, operatsion faoliyatdan kelib tushayotgan pul oqimlarining barqarorligi hamda investitsion va moliyaviy faoliyat samaradorligi aniqlanadi. Shu sababli, moliyaviy inqiroz sharoitida ushbu ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

**■ METODOLOGIYA**

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, statistik ma'lumotlarni o'rganish va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, korxonalarining moliyaviy hisobotlari, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot hamda likvidlik ko'rsatkichlari asosida ilmiy tahlil olib borildi. Moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqlashda joriy likvidlik, tezkor likvidlik va mutlaq likvidlik koeffitsientlari hisobga olindi.

Bundan tashqari, pul oqimlarini boshqarish samaradorligini baholash uchun pul oqimlari tahlili va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari o'rganildi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy inqiroz sharoitida korxona likvidligi va pul oqimlarini boshqarish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Xususan, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan likvidlikning korxona moliyaviy barqarorligidagi o'rni, pul oqimlari tahlilining usullari hamda inqiroz sharoitida moliyaviy risklarni kamaytirish yo'llari tadqiq etilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda pul oqimlarini samarali boshqarish likvidlik etishmovchiligining oldini olishda muhim vosita hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy ishlarda moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Khamrayeva S. va Ravshanova N. o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlarini tahlil qilib, raqamlashtirish jarayonlari moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, raqamli platformalar orqali pul oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish imkoniyati korxona likvidligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Tashpo'latovna S. M. va Ikromovna X. A. tomonidan olib borilgan tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarida raqamli marketing strategiyalarining samaradorligi va istiqbollari ko'rib chiqilgan. Mualliflar raqamli marketing vositalari orqali korxonalar daromadlarini oshirish va pul tushumlarini barqarorlashtirish mumkinligini qayd etadilar, bu esa bevosita likvidlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

■ TAHLIL VA NATIJA

Moliyaviy inqiroz davrida korxonalarining asosiy muammolaridan biri bu likvidlik etishmovchiligi hisoblanadi. Likvidlik korxonaning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Agar korxonada pul oqimlari etarli darajada bo'lmasa, bu to'lov qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Korxona likvidligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega:

1. Joriy likvidlik koeffitsienti – qisqa muddatli majburiyatlarni joriy aktivlar hisobidan qoplash imkoniyatini ko'rsatadi.

2. Tezkor likvidlik koeffitsienti – zaxiralarni hisobga olmagan holda korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash darajasini aniqlaydi.

3. Mutlaq likvidlik koeffitsienti – korxonaning eng tez realizatsiya qilinadigan aktivlari orqali majburiyatlarni qoplash imkoniyatini ifodalaydi.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

Moliyaviy inqiroz sharoitida korxonalar ko'pincha pul oqimlari bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Bu muammolar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- ✓ mijozlar tomonidan to'lovlarning kechikishi;
- ✓ ishlab chiqarish xarajatlarining ortib borishi;
- ✓ kredit majburiyatlarining oshishi;
- ✓ investitsiya faoliyatining qisqarishi.

Pul oqimlarini samarali boshqarish korxona faoliyatining uzluksizligini ta'minlaydi. Shu sababli korxonalar pul oqimlarini rejalashtirish, monitoring qilish va prognozlash tizimini yo'lga qo'yishi zarur. Pul oqimlari tahlili orqali korxona moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi mumkin.

Moliyaviy inqiroz davrida pul oqimlarini uchta asosiy yo'nalish bo'yicha tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi: operatsion faoliyatdan kelib tushadigan pul oqimlari, investitsion faoliyat bilan bog'liq pul oqimlari va moliyaviy faoliyatdan kelib chiqadigan pul oqimlari. Operatsion faoliyatdan olingan pul oqimlari korxonaning asosiy faoliyati samaradorligini ko'rsatadi. Agar operatsion pul oqimlari ijobiy bo'lsa, bu korxona o'z faoliyati orqali etarli darajada pul mablag'lari yaratayotganini anglatadi.

Investitsion faoliyat bilan bog'liq pul oqimlari esa korxonaning uzoq muddatli aktivlarga kiritayotgan investitsiyalarini ifodalaydi. Moliyaviy inqiroz davrida ko'plab korxonalar investitsiya hajmini qisqartirishga majbur bo'ladi, chunki ular mavjud resurslarni asosan operatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiradi.

Moliyaviy faoliyatdan kelib chiqadigan pul oqimlari kreditlar olish, qarzlarni qaytarish yoki aksiyalar chiqarish kabi jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi. Inqiroz sharoitida korxonalar ko'pincha tashqi moliyalashtirish manbalariga murojaat qiladi. Biroq kredit yukining ortishi kelajakda moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, pul oqimlarini prognozlash ham muhim ahamiyatga ega. Pul oqimlarini oldindan rejalashtirish orqali korxona kelajakdagi moliyaviy muammolarni oldindan aniqlashi va ularni bartaraf etish choralari ko'rishi mumkin. Zamonaviy korxonalarda pul oqimlarini boshqarishda raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlari va moliyaviy rejalashtirish dasturlaridan keng foydalanilmoqda.

Moliyaviy inqiroz davrida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Raqamli tizimlar korxonalarga pul oqimlarini tezkor nazorat qilish, moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonini samaraliroq tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli moliyaviy boshqaruv vositalari xarajatlarni kamaytirish hamda moliyaviy risklarni oldindan aniqlashga yordam beradi. Shu sababli moliyaviy inqiroz sharoitida raqamli transformatsiya korxonalarining barqaror faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, N.Ravshanova [1] ning "[O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari](#)" mavzusidagi maqolasida shunday deyilgan "tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning,

Qarshi davlat texnika universiteti



nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish; naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bankmoliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish."

Moliyaviy inqiroz sharoitida korxona likvidligini oshirish uchun bir qator amaliy choralar ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, debitorlik qarzlarni tezroq undirish, ortiqcha xaziralarni kamaytirish, xarajatlarni optimallashtirish va qisqa muddatli moliyaviy rejalashtirish tizimini joriy etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, korxonalar pul oqimlarini diversifikatsiya qilish orqali moliyaviy risklarni kamaytirishi mumkin.

Umuman olganda, moliyaviy inqiroz davrida korxonalarning likvidligi va pul oqimlarini chuqur tahlil qilish ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. To'g'ri tashkil etilgan moliyaviy

tahlil va boshqaruv tizimi korxonaga bozor o'zgarishlariga tez moslashish hamda uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi.

Bundan tashqari A.Abduraximova [2] ning "Moliyaviy inqiroz va pul oqimlarini boshqarishdagi muammolar" mavzusidagi maqolasidagi quyidagi so'zlar o'rnlidir, "Noto'g'ri rejalashtirishda tushum va chiqimlar prognozlarining real holatga mos kelmasligi, hamda moliyaviy oqimlar bo'yicha aniq strategiyaning yo'qligi yuz berishi mumkin. To'lovga qobiliyatsizlik holatlari yuz berganda debitorlarning o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirmasligi, operatsion xarajatlarning yuqoriligi va tushumlarning sustligi holatlariga duch kelinishi mumkin. Naqd pul tanqisligi holati yuzaga kelasa, daromadlar o'sib borayotgan bo'lsa-da, naqd mablag' etishmovchiligi tufayli operatsiyalarni to'xtatib qolishi holatlari yuzaga kelaboshlaydi."

1-jadval.

2025-yil holatiga ko'ra O'zbekistonning moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari [3]

№	Ko'rsatkichlar	2025-yil holati	Izoh
1	YaIM o'sish sur'ati	6–6,8 %	Iqtisodiy o'sish barqaror davom etmoqda
2	Inflyatsiya darajasi	10 % atrofida	Energiya tariflari oshishi ta'siri mavjud
3	Davlat byudjeti defitsiti	3,2 % (YaIMga nisbatan)	Fiskal intizom kuchaytirilmoqda
4	Joriy hisob defitsiti	~5 % (YaIMga nisbatan)	Eksport va pul o'tkazmalari hisobiga barqaror
5	Xalqaro valyuta zaxiralari	49,7 mlrd AQSH dollari	Tashqi qarz to'lovlarini qoplash imkoniyati yuqori
6	Markaziy bank asosiy stavkasi	14 %	Inflyatsiyani nazorat qilish uchun
7	Tashqi zaxiralarning importni qoplash muddati	9–10 oy	Moliyaviy xavfsizlik darajasi etarli
8	Davlat qarzi darajasi	Xavf darajasi past	Xalqaro tashkilotlar tomonidan barqaror deb baholangan

2025-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolmoqda. YaIM o'sishi taxminan 6 % atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda, bu esa ichki iste'mol, investitsiyalar va iqtisodiy islohotlar bilan bog'liq. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi hali ham yuqori bo'lib, u 10 % atrofida saqlanmoqda. Xalqaro valyuta zaxiralari 49,7 mlrd AQSH dollariga etib, mamlakatning tashqi iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlab turibdi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy inqiroz sharoitida korxona likvidligi va pul oqimlarini samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, korxonalarda pul oqimlarini to'g'ri rejalashtirish va nazorat qilish likvidlik darajasini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, korxonalarga quyidagi choralarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- ✓ pul oqimlarini doimiy monitoring qilish;
- ✓ xarajatlarni optimallashtirish;

✓ qisqa muddatli majburiyatlarni samarali boshqarish;

✓ moliyaviy risklarni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish.

Ushbu chora-tadbirlar korxonalarning moliyaviy inqiroz sharoitida barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Saxatova Muqaddas Toshpo'lat qizi Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi / Muqaddas Sakhatova Toshpo'lat kizi Lecturer at the International Innovative University / Мукаддас Сахатова Тошпулат кизи преподаватель Международного инновационного университета

E-mail: muqaddassaxatova45@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-6164-041X>



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brealey R., Myers S. Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill, 2019.

2. Ross S., Westerfield R., Jordan B. Fundamentals of Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill, 2021.

3. Brigham E., Houston J. Financial Management: Theory and Practice. – Cengage Learning, 2020.

4. Abduraximova F. Raqamli Valyutani Joriy Etishning Pul-kredit Tizimiga Ta'siri Masalalari //Green Economy and Development. – T. 3. – №. 4. – C. 665989.

5. Tashpo'latovna S. M., Ikromovna X. A. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 4. – C. 217-224.

6. Khamrayeva S., Ravshanova N. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari //THE INNOVATION ECONOMY. – 2024. – T. 2. – №. 02. https://www.uzdaily.uz/en/fitch-upgrades-uzbekistans-sovereign-rating-to-bb-with-stable-outlook/?utm_source=chatgpt.com



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz